"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

BANK BOSHQARUVI QARORI

**№ 790**
**2024 yil «27» «dekabr»**

# "O'zsanoatqurilishbank" ATBning "2025 yilda asosiy vositalar xarid qilish smetasi"ni tasdiqlash to'g'risida

Hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, Bank tizimini takomillashtirish hamda xodimlar va mijozlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida Bankni zarur asosiy vositalar bilan ta'minlash ishlari olib borilmoqda.

"O'zsanoatqurilishbank" ATBning Buxgalteriya hisobi siyosati"ning 153-bandida asosiy vositalarni sotib olish uchun Bosh bank yillik xarajatlar smetasini tuzishi va zarur hollarda tarmoqlarning xarajatlar smetasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Bosh bank va hududiy boshqarmalar ehtiyojlaridan kelib chiqib, "O'zsanoatqurilishbank" ATBning 2025 yilda asosiy vositalarni xarid qilish smetasi" loyihasi ishlab chiqilgan hamda Boshqaruv Raisiga kiritilgan bildirishnomada smetani tasdiqlash masalasini Boshqaruv muhokamasiga kiritishga ruxsat so'ralgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Bankning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, yangi va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash orqali Bank faoliyatini rivojlantirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash maqsadida, Bank boshqaruvi

**QAROR QILADI:**

**1.** "O'zsanoatqurilishbank" ATBning "2025 yilda asosiy vositalar xarid qilish smetasi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2.** Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti (A.Xujamuratov)ga tasdiqlangan asosiy vositalarni xarid qilish smetasini barcha tarmoqlarga yetkazish va ularning ijrosi ustidan nazorat o'rnatish vazifasi yuklatilsin.

**3.** 2025 yil mobaynida smeta xarajatlarini tasdiqlangan rejadan og'ishmay amalga oshirish va uni nazorat qilish tashabbuskorlar zimmasiga yuklatilsin.

**4.** Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Boshqaruv Raisining o'rinbosari D.Umarov zimmasiga yuklatilsin.

| | | |
|---|---|---|
| **Boshqaruv Raisi** | **IMZOLANGAN** | **A.Akbarjonov** |
| Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari | **IMZOLANGAN** | A.Ergashev |
| Boshqaruv Raisi o'rinbosari | **IMZOLANGAN** | Sh.Yakubov |
| Boshqaruv Raisi o'rinbosari | **IMZOLANGAN** | Sh.Yusupov |
| Boshqaruv Raisi o'rinbosari | **IMZOLANGAN** | D.Umarov |
| Boshqaruv Raisi o'rinbosari | **IMZOLANGAN** | S.Abduvaliyev |
| Risk bosh direktori | **IMZOLANGAN** | S.Ismagilov |
| Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti Departament direktori | **IMZOLANGAN** | A.Xujamuratov |

**Kiritildi:**

| | | |
|---|---|---|
| Xaridlarni tashkil etish xizmati Xaridlarni tashkil etish xizmati rahbari | **IMZOLANGAN** | S.Kurbonbekov |

**Kelishuvchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| Yuridik departament Departament direktori v.v.b. | **KELISHILDI** | U.Aminova |

*https://hujjat.sqb.uz/?pin=uX52fV48&id=adb5a07a-59d5-4984-a6c8-d86e3f52f8fe*